



**INTERNATIONAL RULES AIMED AT THE LEGAL
REGULATION OF SPORTS AGENTS' ACTIVITIES AND
THE EXPERIENCE OF DEVELOPED FOREIGN
COUNTRIES, AS WELL AS PROSPECTS FOR THEIR
IMPLEMENTATION INTO NATIONAL LEGISLATION**

M.M. Yetmishboyev

Senior Lecturer of the Academy of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan, Captain

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17422398>

ARTICLE INFO

Received: 16th October 2025

Accepted: 21st October 2025

Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Sports agents, legal regulation, international rules, national legislation, implementation, developed countries, sports management, FIFA, UEFA, legislative experience.

ABSTRACT

The article is devoted to the study of international rules and the experience of developed foreign countries aimed at the legal regulation of agents in the field of sports. It analyzes international standards regulating the activities of sports agents, including norms developed by FIFA, UEFA, and other organizations. Additionally, practices in the USA, the European Union, and other countries, their legislative framework, and effectiveness are examined. The article discusses the possibilities and prospects of implementing these experiences into Uzbekistan's national legislation, highlighting existing problems and their solutions.

**SPORT BO'YICHA AGENTLAR FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA
SOLISHGA QARATILGAN XALQARO QOIDALAR VA RIVOJLANGAN
XORIJIY DAVLATLARNING TAJRIBASI HAMDA ULARNI MILLIY
QONUNCHILIKKA IMPLEMENTATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI**

M.M. Yetmishboyev

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi katta o'qituvchisi, kapitan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17422398>

ARTICLE INFO

Received: 16th October 2025

Accepted: 21st October 2025

Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Sport agentlari, huquqiy tartibga solish, xalqaro qoidalar, milliy qonunchilik, implementatsiya, rivojlangan davlatlar, sport menejmenti, FIFA, UEFA, qonunchilik tajribasi.

ABSTRACT

Maqola sport sohasida agentlar faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan xalqaro qoidalar va rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishga bag'ishlangan. Unda sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro standartlar, shu jumladan FIFA, UEFA va boshqa tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan normalar tahlil qilinadi. Shuningdek, AQSH, Yevropa Ittifoqi va boshqa davlatlardagi amaliyotlar, ularning qonunchilik bazasi va samaradorligi ko'rib chiqiladi. Maqolada ushbu tajribalarni O'zbekiston milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish imkoniyatlari va istiqbollari muhokama qilinadi, mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rsatiladi.



Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda respublikaning o'ziga xos shart-sharoitlari va xususiyatlari, xalqimizning turmush tarzi, an'analari va urf-odatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar orttirgan ilg'or tajribalarni ham hisobga olish an'ana tusiga kirgan. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "davlatimizning tashqi siyosat sohasidagi yondashuv va pozitsiyasi jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish va amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim shartlaridan biri"¹ hisoblanadi.

Zero, bugungi kunda har qanday davlatning milliy qonunchiligiga xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalarini implementatsiya qilish, xalqaro doirada turli davlatlar huquqiy tizimlarini yaqinlashtirish zarurligi haqidagi masalani ham o'rtga tashlaydi².

Ayni paytda huquqiy tartibga solish zaruriyati majbur bo'lgan sohalardan biri sport agentlarining faoliyati hisoblanadi. Qolaversa xalqaro maydonda yirik sport tadbirlari o'tkazilayotganligi ayni haqiqatdir. Shu boisdan professional sportdagi agentlar faoliyatini huquqiy tartibga solishda xalqaro qoidalar shuningdek sport sohasida rivojlangan davlatlar qonunchilik normalarini tahlil etish dolzarb ahamiyatga ega.

Barchaga ma'lumki, sport sohasini globallashuv jarayoniga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Zero, M.D.Lyubimova ta'kidlaganidek, globallashuv va xalqarolashuv davrida davlatlar uchun ushbu sohada huquqiy avtonomiyani saqlab qolish tobora qiyinlashib bormoqda, shuning uchun biz xalqaro sport huquqining ancha dinamik rivojlanishini va natijada uning mahalliy sport qonunchiligiga bevosita ta'sirini kuzatishimiz mumkin³.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, xalqaro miqyosda professional sportdagi agentlik munosabatlarni huquqiy tartibga solish manbalar doirasini belgilashda noaniqliklar mavjud⁴. Agentlik munosabatlarni xalqaro huquqiy tartibga solish doirasidagi qarashlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

¹ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. – Б. 27.

² Тиунов О.И. Влияние международно-правовых норм на законодательство стран СНГ // Закон: стабильность и динамика (Материалы заседания Международной школы-практикума молодых ученых-юристов, Москва, 1-3 июня 2006 г. / Отв. Ред. Т.Я.Хабриева. – М., 2007. – С. 20.

³ Любимова М.Д. Особенности применения агентского договора в различных сферах хозяйственной деятельности // Юрист. – 2011. – № 16. – С. 3-8.

⁴ Погосян Е.В. Формы разрешения спортивных споров: монография. - М.: Волтерс Клувер, 2011. – С. 107-111; Сихарулидзе А.Т., Алексеев С.В. Актуальные проблемы спортивного права и спортивного законодательства на современном этапе // Спорт: экономика, право, управление. – 2011. – № 2. – С. 3; Карякин В.В. Нормативное правовое обеспечение и совершенствование государственной политики в сфере физической культуры и спорта // Спорт: экономика, право, управление. – 2011. – № 1. – С. 10; Амиров И.М. Особенности юридической ответственности в сфере спорта: к постановке проблемы // Общество и право. – 2010. – № 4. – С. 120; Сараев В.В. Альтернатива договорно-правовых форм при оплачиваемой деятельности спортсменов // Спорт: экономика, право, управление. – 2010. – № 1. – С. 8; Шевченко О.А. О гражданско-правовых отношениях между спортсменом и физкультурно-спортивной организацией // Спорт: экономика, право, управление. – 2010. – № 1. – С. 11; и др. авторы.



birinchisi, sportdagi agentlik faoliyatining tijorat xususiyatini hisobga olgan holda, sport agenti faoliyati xalqaro savdo huquqiga bo'ysunishini ko'rsatadi⁵ ;

ikkinchisi, xalqaro miqyosda jadal rivojlanayotgan sport huquqi sohasi agentlik munosabatlarini o'z predmetining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi⁶;

uchinchi nuqtai nazarga ko'ra, sport agentligi faoliyati mehnat qonunchiligini tartibga solish sohasi bo'lib, uning xalqaro tarkibiy qismi ancha mustahkam normativ-huquqiy bazaga ega⁷.

Bu qarashlardan kelib chiqib aytish mumkinki, professional sportda agentlik munosabatlarining huquqiy rejimini xalqaro miqyosda o'rnatish maqsadida huquqiy doktrinada ishlab chiqilgan uchala tushunchalarda sport agenti faoliyatining qirralarini ko'rish mumkin. Chunki sport agenti faoliyati kasbiy nuqtai nazardan xalqaro mehnat bozorida ham muhim ahamiyat kasb etib ulgurgan.

Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlardan Avstriya, Belgiya, Bolgariya, Kipr, Chex Respublikasi, Daniya, Estoniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlarda 32 turdagi sport sohasida sport agentlari mavjud bo'lib, jumladan, 28 turdagi Olimpiya sport sohasida sport agentlari faoliyat yuritadi. Bu 32 turdagi sportda rasmiy va norasmiy agentlar mavjud. Sport agentlari Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Shvetsiya va Buyuk Britaniyada kamida 10 xil sport turida faol ishlaydi. Futbolga kelsak, sport agentlari Yevropa Ittifoqining barcha a'zo davlatlarida faol. Futbol hozirgacha eng ko'p rasmiy sport agentlariga ega bo'lgan sport turi bo'lib, undan keyin regbi, basketbol va engil atletika kabilar turadi. Ushbu to'rtta sport turi Yevropadagi rasmiy sport agentlari umumiy sonining 95 foizini tashkil qiladi⁸.

Mazkur statistik ma'lumotlar orqali aytish mumkinki, sport agentlarining faoliyati Yevropa davlatlarida rivojlangan. Shuningdek, sport agentlarining mehnat bozorida ko'lami ham kengligidan dalolat beradi.

Yevropa davlatlarida sport agentlari faoliyatini hukumatlar (shu jumladan, bunga vakolatli mintaqaviy hokimiyatlar) tomonidan tartibga solish turli yo'llar bilan amalga oshirilishini kuzatish mumkin. Bularni quyidagicha tasniflash mumkin:

birinchi navbatda, sport agentlariga nisbatan qo'llaniladigan qonunchilik va tartibga soluvchi qoidalar davlat hukumati tomonidan tartibga solib berilgan. Bunga Bolgariya, Fransiya, Gretsiya va Portugaliya kabi davlatlarni misol qilish mumkin;

⁵ Власова Н.В. Коммерческие агентские контракты: рекомендательные акты МТП // Журнал российского права. – 2012. – № 2. – С. 118.

⁶ Сердюков А.В. Спортивное право как комплексная отрасль законодательства: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – М., 2010. – С.14.; Сараев В.В. Отдельные вопросы правового регулирования коммерческой деятельности в профессиональном спорте // Спорт: экономика, право, управление. – 2010. – № 4. – С. 11.

⁷ Гужов А.А. Профессиональные союзы в спорте: история и современность // Спорт: экономика, право, управление. – 2010. – № 4. – С. 26; Благодарова И.А. Принцип свободы труда в профессиональном спорте // Спорт: экономика, право, управление. – 2011. – № 3. – С. 10.

⁸ Study on sports agents in the european union. A study commissioned by the Yeuuropean Commission (Directorate-General for Yeducation and Culture). – 2009. – P. 4.



ikkinchidan, sport agentlariga nisbatan xususiy bandlik xizmatlarini tartibga soluvchi umumiy qonunchilik va qoidalar qo'llanilishi mumkin. Bunga misol sifatida Germaniya, Avstriya, Niderlandiya va Chexiya Respublikasini keltirish mumkin;

uchinchidan, sport agentlariga nisbatan faqatgina umumiy qonun normalari tatbiq etiladi. Bunga Daniya va Lyuksemburgda bo'lgani kabi, faqat oddiy qonunlar (shartnoma huquqi, tijorat huquqi) qo'llanilishi mumkin⁹.

Fikrimizcha, sport agentlari faoliyatini huquqiy tartibga solishda bu turlarga ajratish bevosita ichki tartib-taomillar hamda qoidalardan kelib chiqqan degan xulosani ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Fransiyada 2002-yilda "Sport agentlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingan paytda "Fransiya basketbol agentlari federatsiyasi" ham tashkil etilgan bo'lib, ushbu federatsiya o'zida basketbol bo'yicha 20 dan ortiq litsenziyalangan agentlarni birlashtirgan¹⁰.

Gretsiyada sport agentlari to'g'risidagi hukumat qoidalar (2725/1999-sonli qonun va 2002-yil 28-avgustdagi 23788-sonli vazirlik qarori) mavjud bo'lib, ularning faoliyati ushbu qonun hujjatlari bilan tartibga solingan¹¹.

Tadqiqotlarga ko'ra, sport agentlari faoliyatini tartibga solish uchun xalqaro darajada maxsus ishlab chiqilgan bir nechta me'yoriy qoidalar mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

to'rtta xalqaro sport federatsiyalari FIBA (xalqaro basketbol federatsiyasi), FIFA (xalqaro futbol assotsiatsiyasi), IAAF (xalqaro engil atletikachilar federatsiyasi), IRB (xalqaro regbi uyushmasi) tomonidan sport agentlari faoliyati to'g'risidagi nizomni qabul qilgan bo'lsa, shuningdek, bir qator milliy federatsiyalar ham sport agentlari uchun maxsus qoidalarni ishlab chiqdilar. Ushbu maxsus qoidalarning doirasi bir holatdan boshqasiga sezilarli darajada farq qiladi¹².

Garchi, xalqaro federatsiyalar tomonidan sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar mavjud bo'lsa-da, biroq barcha sport turlarini qamrab olgan, shuningdek, umumiy normalarni o'z ichiga olgan yagona tizimlashtirilgan normativ-huquqiy hujjat mavjud emas. Shuni alohida qayd etish lozimki, nomi yuqorida qayd etilgan federatsiyalar tomonidan qabul qilingan nizomlar tegishli sport agentlari faoliyatinigina tartibga solishga qaratilgan. Biroq ayni paytda xalqaro maydonda mavjud bo'lgan 28 turdagi Olimpiya sport o'yinlari sohasida sport agentlari faoliyat yuritishi ayni haqiqatdir.

⁹ Actors And Regulations Governing Sports Agents' Activities In Yeuurope. // URL: <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf> (murojaat etilgan sana: 20.02.2023).

¹⁰ Study on sports agents in the european union. A study commissioned by the Yeuuropean Commission (Directorate-General for Yeducation and Culture). – 2009. – P. 61. // URL: <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf> (murojaat etilgan sana: 21.02.2023).

¹¹ Loi 2725/1999 sur le sport amateur et professionnel, telle que modifiée par la loi 3479 du 19 juillet 2006, art. 90 § 5. // <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf>. – P. 274

¹² Stratford C., « Talented African Footballers duped by bogus Fifa Agent », 4 mars 2006.



Shuningdek, ayrim Yevropa davlatlarida sport agentlarining faoliyatida professional sportchilarni xususiy ishga joylashtirish bilan bog'liq vositachilik xizmatlariga doir umumiy qoidalar ham mavjud. Ko'pgina hollarda ushbu qoidalar xususiy ishga joylashtirish xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lish uchun ro'yxatga olish, litsenziyalash yoki ruxsat berish tartiblarini nazarda tutadi¹³. Bu qoidalar sport agenti tomonidan sportchi yoki jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga faktik harakatlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi turli xil qoidalar hamda tartibga solish usul va uslublari ma'lum umumiy tendensiyalar va farqlarni ko'rish mumkin (maxsus qoidalar, xususiy ishga joylashtirish to'g'risidagi qoidalar, oddiy qonunlar, sport qoidalari). Xususan, muayyan qoidalarga ko'ra, sport agenti faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli shakldagi ruxsatnoma talab qilinadi (masalan, litsenziya, rasmiy tan olish yoki oddiygina ro'yxatdan o'tish).

Bundan tashqari, litsenziya talab qilinadigan hollarda, ba'zan imtiyozlar ham taqdim etiladi (masalan, FIFA reglamentida futbolchining ota-onasi, aka-uka, opa-singillari va turmush o'rtoqlari vakillik qilish uchun litsenziyaga ega bo'lishlari shart emasligi ko'rsatilgan bo'lsa, milliy federatsiyalar reglamentiga kiritilgan ushbu imtiyoz o'z yashash mamlakatida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun qonuniy vakolatga ega bo'lgan advokatlarga ham taalluqlidir)¹⁴.

Shuningdek, ruxsat olish uchun bajarilishi kerak bo'lgan talablar (agar kerak bo'lsa) oddiy ro'yxatdan o'tishdan tortib litsenziya imtihonidan o'tishgacha bo'lgan darajada farqlanadi.

Litsenziya yoki ruxsatnoma ba'zan faqat jismoniy shaxslarga, ba'zan esa yuridik va jismoniy shaxslarga beriladi. Litsenziya yoki ruxsatnomaning amal qilish muddati ham me'yoriy hujjatlarda turlicha ekanligini ko'rish mumkin. Masalan, FIFA tomonidan qabul qilingan 2008-yilda o'yinchilarning agentlari to'g'risidagi nizomda litsenziyaning amal qilish muddati u berilgan kundan besh yil o'tgach tugashi belgilangan bo'lsa, ayrim mamlakatlarda litsenziya (yoki ruxsatnoma) cheksiz muddatga (Avstriya, Portugaliya va boshqalar) yoki boshqa muddatga (masalan, Fransiya – uch yil va Gretsiya – bir yil) amal qiladi¹⁵.

Umuman olganda, sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi normalarda bunday farqlarning mavjudligi bevosita davlatlar ichki qoidalarining o'ziga xos jihatlardan kelib chiqmoqda.

¹³ Actors and regulations governing sports agents' activities in Yeuropе. Bulgaria has ratified ILO's C181 Private Yemployment Agencies Convention. The Czech Republic has ratified ILO's C181 Private Yemployment Agencies Convention. The Act of 10 June 2003 on the active commitment for employment, contains provisions on placement, but does not seem to govern the activity of private employment agencies. Finland has ratified ILO's C181 Private Yemployment Agencies Convention.

¹⁴ According to the Yenglish FA Regulations, the persons who are exempted from holding a licence (close relatives and lawyers of the player) under the FIFA Regulations must nevertheless be registered with the FA to operate as sports agents in the FA's jurisdiction. The same applies to licensed agents who are members of a foreign federation (FA Regulations, Appendix III)

¹⁵ Agents recognised or licensed by a sport federation or government body. – P.124



Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi har qanday qoidalarni amalga oshirish murakkabdir. Bunga quyidagi omillarni keltirish mumkin:

- ushbu faoliyatning xalqaro tabiatidagi turli-tuman qoidalar-ning mavjudligi;
- milliy sport va qonunchilik madaniyatlarining xilma-xilligi;
- qo'llanilishi yoki qo'llanilmasligi mumkin bo'lgan qoidalarining ko'pligi;
- uzoq muddatli amaliyotning mavjudligi¹⁶.

Jumladan, sport agentlari faoliyati Yevropa Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi shartnoma qoidalariga (xizmatlar ko'rsatish erkinligi, tashkil etish erkinligi va raqobatni nazarda tutadi) bo'ysunadi¹⁷. Shuningdek, xizmatlar to'g'risidagi Yo'riqnoma¹⁸ hamda Kasbiy malakani tan olish¹⁹ to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Sport agentlari faoliyatining xalqaro hamjamiyat o'lchoviga kelsak, sport agentlariga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar ularning transchegaraviy o'lchamida ularning faoliyatini amalga oshirishga to'sqinlik qiladimi yoki yo'qmi? degan savol ham tug'iladi.

Zamonaviy dunyo olamida sport agentlari faoliyatiga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar o'z navbatida yagona tizimlashtirilmaganligi sabab ularning transchegaraviy holatida muammolar vujudga kelishi mumkin.

AQSHda sport agenti kasbini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik choralari birinchi marta 1990-yillarda kiritilgan. Asosan universitet sportchilarini himoya qilishga qaratilgan ushbu qoidalar odatda agentlar vakolatli organda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi va ular tomonidan berilgan litsenziyaga ega bo'lishi kerakligini belgilaydi.

2000-yil boshida 30 ta shtatda sport agentlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik kiritilgan edi, ammo o'sha yilning avgustiga kelib AQSHning barcha shtatlarida qo'llaniladigan yagona "Sportchi agentlari to'g'risi"dagi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi turli shtatlarda mavjud bo'lgan amaldagi qoidalarni uyg'unlashtirish bo'lib, federal qonun chiqaruvchi organning fikriga ko'ra, mazkur qonun ushbu sohadagi suiiste'molliklarni sezilarli darajada cheklashga yordam berdi.

Tadqiqotlarga ko'ra Qo'shma Shtatlarda sport agentlarining kelib chiqishi va martabasiga asoslanib, ularning beshta toifasini ajratishadi²⁰:

¹⁶ Actors and regulations governing sports agents' activities in europe. – P.68

¹⁷ Directive 2006/123/EC of the Yeuuropean Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market

¹⁸ Directive 2006/123/EC of the Yeuuropean Parliament and of the Council of 12 December 2006 on services in the internal market. // URL: <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:L:2006:376:0036:0068:en:PDF>. (murojaat etilgan sana: 28.02.2023).

¹⁹ CFI [Court of First Instance of the Yeuuropean Communities], 26 January 2005, Case T-193/02, Piau v. Commission, FIFA, judgment upheld by the YeCJ, Order of the Court of 23 February 2006, Case C-171/05. // URL: <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf> – P. 5.

²⁰ This typology has been derived from the interviews conducted and the responses to the questionnaires used in this study, as well as from the doctoral research carried out by Ms Adriana Sekulovic under the supervision of Jacques Defrance, at the Université Paris X Nanterre. // URL: <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf> . – P. 22.



- 1) *sobiq sportchi yoki o'yinchi bo'lgan agentlar*. Eng yaxshi sportchilar o'z sport karyerasining oxirigacha egallagan sport faoliyati bo'yicha tajriba va bilimlar tarmog'iga ega bo'lgan shaxslar;
- 2) *sport bozorining nufuzli va yaxshi aloqador ishtirokchilari bo'lgan agentlar*. Bozorning nufuzli ishtirokchilari bo'lgan agentlar, birinchi navbatda, sport bozorida ko'proq yoki kamroq muhim ulushga ega bo'lishlari bilan ajralib turadi. Sport muhitini bilishlari va shu muhitda qaror qabul qiluvchilar bilan aloqalari tufayli ular ko'pincha qiyin bo'lishi mumkin va ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muzokaralarning muhim ishtirokchilaridir. Bunday sport agentlari, ayniqsa, tennis, futbol, boks va avtosportda moliyaviy ulushlar yuqori bo'lgan shaxslardir;
- 3) *muvaqqat agentlar*. "Muvaqqat agent" tushunchasi sport agenti sifatida aniq bir kasbga ega bo'lishni istamagan holda, vaqti-vaqti bilan agent vazifasini bajaruvchi va bu xizmat uchun haq olishni nazarda tutadi;
- 4) *murabbiy bo'lgan agentlar*. Murabbiy agent – bu agentlarning toifasi kam bo'lib, empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, barcha sport turlari bo'yicha u yoki bu nuqtada sport agenti vazifasini bajargan ko'plab murabbiylardir. Ushbu turdagi sport agentlari asosan futbol, boks, engil atletika va gimnastika va jangovar sport turlari kabi havaskor olimpiya sport turlarida mavjud;
- 5) *qarindosh bo'lgan agentlar*. Sport agenti kasbini tartibga soluvchi ko'pgina sport boshqaruv organlari sportchilarga o'z oila a'zolarini o'z manfaatlarini himoya qilish uchun chaqirish imkoniyatini beradi²¹.

Aytish joizki, mazkur agentlarning turlarga bo'linishi, birinchidan, qonunchilik normalari bilan tartibga solingan bo'lsa, ikkinchidan, sport agentlari faoliyati muhim sohalardan biri deb aytish mumkin.

Sport agentlari tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar quyidagilarni tashkil etadi:

birinchidan, maslahat berish xizmati. Maslahatchi sifatida ishlaydigan agentlar barcha sport turlarida mavjud bo'lib tuyuladi. Ularning asosiy roli sportchini o'z karyerasining turli bosqichlarida eng yaxshi tanlov qilishiga yo'naltirishdir;

ikkinchidan, brokerlik xizmati. Agentning uch tomonlama (sportchi, agent klub, sport tadbirini tashkil etuvchi). Agent kamida ikkita ahdlashuvchi tomon o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi va ulardan birining manfaatlarini himoya qiladi;

uchinchidan, sport musobaqalarini tashkil etish va ommalashtirish xizmati. "Tashkilotchi agent" sport musobaqalari yoki musobaqalarini tashkil etishda ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Sport agenti sport tadbirini tashkil etishda ishtirok etishga chaqiriladi, ayniqsa ushbu agent keng aloqa tarmog'iga ega bo'lsa;

to'rtinchidan, o'yinchining imidji va muloqotini boshqarish xizmati. Futbolchining matbuot kotibi vazifasini bajaruvchi agentlar matbuot xodimlariga o'xshaydi. Ular asosan sportchining imidjini boshqaradi. Jumladan, Portugaliyaning "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi 5/2007-sonli qonunining 37-moddasi va Xalqaro engil atletika

²¹ Regulations governing sports agents' activities, issued by international sport federations. // URL: <https://ec.europa.eu/assets/eac/sport/library/studies/study-sports-agents-in-yeu.pdf> –P.74.



reglamentining 7.1 bandi ko'ra, sport agentlari faoliyatini sifatida sportchining imidjiga oid huquqlar bo'yicha shartnomalar tuzishni o'z ichiga oladi;

bashinchidan, o'yinchining mol-mulkini boshqarish xizmati. Sport agenti tegishli sportchining karyerasini boshqarishga yordam berishdan tashqari, ba'zida uning moliyaviy aktivlarini boshqaradi. Umuman olganda, sportchi agentdan unga sportdan ketishiga tayyorgarlik ko'rish va aktivlarini oqilona sarmoya qilishda yordam berishini so'raydi. Ba'zi sportchilar o'z agentlari bilan hamkorlik qilishdan va ular taklif qilgan bitimlarga sarmoya kiritishdan tortinmaydilar;

oltinchidan, yuridik maslahatlar berish xizmati. Sport agenti xizmatlariga murojaat qilish to'g'risida qaror qabul qilishda, sportchilar agent turini va u taqdim etadigan xizmatlar turini hisobga oladilar. Misol uchun, ba'zi sportchilarning fikriga ko'ra, o'z karyerasini boshqarishni yirik sport menejmenti firmasiga ishonib topshirish ularga kamroq ta'sirli, "mustaqil" agent taqdim eta olmaydigan keng ko'lamli xizmatlardan foydalanish imkonini beradi²².

Ushbu agentlar asosan sportchilar nomidan ish olib borishsada, ayrim sport turlarida klublar, murabbiylar va/yoki sport tadbirlari tashkilotchilariga o'z xizmatlarini taklif qilishlari mumkin. Ularning asosiy faoliyatlari sportchilarning sport klublari (jamoaviy sport turlari bo'yicha) yoki sport tadbirlari tashkilotchilari (sportning individual turlari bo'yicha) bilan kelishgan holda ish bilan ta'minlashdan iborat. Biroq sport agentlari ko'pincha boshqa xizmatlarni taklif qilishadi. (masalan, menejmentlik xizmatlari, aktivlarni boshqarish bo'yicha maslahatlar, yuridik va fiskal maslahatlar va boshq.).

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda, sport agenti haq evaziga quyidagi faoliyat turlaridan biri yoki bir nechtasini vaqti-vaqti bilan yoki muntazam ravishda amalga oshiruvchi har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida belgilanishi mumkin:

– haq evaziga sport faoliyatini amalga oshirish to'g'risida shartnoma tuzishdan manfaatdor tomonlarni birlashtirish;

– professional sportchi nomidan turli xil shartnomalar, masalan, imidj huquqi shartnomalari, homiylik shartnomalari, reklama shartnomalari va boshqa munosabatlar doirasida muzokaralar olib borish va tuzish;

– professional sportchining mol-mulkini boshqarish.

Shunday qilib, sport sohasidagi agentlik faoliyati xalqaro darajadagi sport qonunchiligi hujjatlariga bo'ysunadi va boshqa sohaga oid xalqaro huquqiy hujjatlarning doirasi sifatida qaralmasligi kerak degan xulosaga kelish mumkin.

Biroq xalqaro miqyosda sport agentligi faoliyati masalalariga oid tizimlashtirilgan hujjat mavjud emasligi sababli, uni xalqaro tartibga solish funksiyasidan turli sport turlari federatsiyalari faol foydalanmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'RQ-394-son qonuniga quyidagi

²² Regulation of the activities of sports agents in YeU Member States which have adopted specific public regulations applicable to sports agents – P. 166.



mazmundagi yangi moddalardan iborat bo'lgan "Sport agenti" deb nomlanuvchi 3¹-bob bilan to'ldirish zarur.

"28¹-modda. Sport agentining maqomi

Sportchilar, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari o'z faoliyatida sport agentlari xizmatidan foydalanishlari mumkin.

Sport agenti faoliyati faqat sport turlari bo'yicha tegishli federatsiyalar (uyushmalar, assotsiatsiyalar) tomonidan sport agenti sifatida akkreditatsiya qilingan yoki litsenziya berilgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladi".

"28²-modda. Sport agentligi shartnomasi"

Sport agenti o'z faoliyatini sport agentligi shartnomasi asosida amalga oshiradi.

Sport agentligi shartnomasi bo'yicha bir tomon (sport bo'yicha agent) ikkinchi tomon (sportchi, jismoniy tarbiya va sport tashkiloti) nomidan haq evaziga sportchi nomidan va uning hisobidan yuridik harakatlarni amalga oshiradi.

Sport agenti o'z faoliyatini amalga oshirish uchun tegishli (litsenziya olish yoki ro'yxatdan o'tish, ruxsat olish yoxud rasmiy tan olish) hujjatga ega bo'lishi lozim".

"28³-modda. Sport agentining faoliyati

Sport agentligi shartnomasiga muvofiq, sport agenti yuridik va faktik harakatlarni amalga oshiradi.

Sport agentining yuridik harakatlariga quyidagilar kiradi:

sportchi, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari nomidan shartnomalar tuzish;

sportchilarning manfaatlarini ifoda etishda, jismoniy tarbiya va sportning tegishli tashkilotlarida, sudlarda, davlat organlari, tashkilot va muassasalarda qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish va qonunda taqiqlanmagan boshqa harakatlar.

Sport agentining faktik harakatlariga quyidagilar kiradi:

sportchilarni bir sport klubidan boshqasiga o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish; tuzilgan shartnomalarni bajarish;

sportchiga jismoniy tarbiya va sportni tashkil etishga sport faoliyati bo'yicha maslahat berish;

sport agentining harakatlariga, sportchi va jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarini shartnomaviy munosabatlarga kirish mumkin bo'lgan potensial kontragentlar (sportchilar, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari) haqida xabardor qilib turish;

sportchini jismoniy tarbiya va sport tashkiloti bilan, jismoniy tarbiya va sport tashkilotini sportchi bilan tanishtirish;

sportchi va jismoniy tarbiya va sport tashkiloti nomidan muzokaralar olib borish, sportchining va jismoniy tarbiya va sport tashkilotining manfaatlariga rioya qilish,

shu jumladan, sportchi va jismoniy tarbiya va sport tashkiloti uchun homiylar hamda reklama beruvchilardan o'zaro manfaatli hamkorlik takliflarini tanlash, sportchi va jismoniy tarbiya va sport tashkilotining homiylik shartnomalarini hamda tijorat huquqlaridan foydalanish bo'yicha shartnomalarni ta'minlash va boshqalar kiradi.

Sport agenti zimmasiga ushbu moddaning 2-bandida nazarda tutilgan harakatlarning hammasi yoki bir qismi sport agentligi shartnomasiga muvofiq ishonib topshirilishi mumkin".



“28⁴-modda. Sport agentining xizmatiga haq to‘lash

Sportchi (jismoniy tarbiya va sport tashkiloti) sport agentiga sport agentligi shartnomasida belgilangan miqdorda va tartibda haq to‘lashi shart. Agar sport agentligi shartnomasida agentlik yig‘imining miqdori nazarda tutilmagan bo‘lsa va uni shartnoma shartlaridan kelib chiqib aniqlash mumkin bo‘lmasa, yig‘im O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 356-moddasi 4-bandiga muvofiq belgilangan miqdorda to‘lanishi kerak.

Sport agentligi shartnomasida xizmat haqini to‘lash muddati bo‘yicha shartlar mavjud bo‘lmagan taqdirda, sportchi (jismoniy tarbiya va sport tashkiloti) sport agenti o‘tgan davr uchun hisobot taqdim etgan kundan boshlab etti kun ichida haq to‘lashi shart (agar shartnomaning mohiyatidan boshqa haq to‘lash tartibi kelib chiqmasa).